

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashi
6-son majlisining bayonidan
K O' C H I R M A

2023-yil 31-yanvar

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi:

M.E.Po'latov

– Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori, Kengash raisi

Qatnashganlar:

– Institut prorektorlari, dekanlari, kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI:

VI. Turli masalalar.

VI.5. Samarqand iqtisodiyot va servis institutini 2023-2028 yillarda rivojlantirish Dasturini tasdiqlash to'g'risida

Eshitildi: Ushbu masala yuzasidan o'quv ishlari bo'yicha prorektor T.S.Sharipovning axboroti tinglandi.

Axborotda Samarqand iqtisodiyot va servis institutini 2023–2028 yillarda rivojlantirish Dasturi institutning istiqboldagi faoliyatini strategik jihatdan belgilab beruvchi asosiy hujjatlardan biri ekanligi ta'kidlandi. Mazkur Dastur olti qismdan iborat ekanligi, unda institutning faoliyati, rivojlanish holati va istiqbollariga oid asosiy yo'nalishlar tizimli ravishda aks ettirilganligi qayd etildi. Jumladan, Dasturda institut haqida umumiy ma'lumotlar, institutning missiyasi, institutning akademik, ilmiy-innovatsion va xalqaro nufuzining joriy holati tahlili, institutni 2023–2028 yillarga mo'ljallangan strategik rivojlantirishning maqsadlari va konseptual asoslari, institutning 2023–2028 yillarga mo'ljallangan strategik rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlari dasturi hamda institutni 2023–2028 yillarda rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari batafsil yoritilganligi ma'lum qilindi.

Dasturda belgilangan strategik maqsad va vazifalarni izchil amalga oshirish institutning akademik, ilmiy-innovatsion va xalqaro faoliyatini rivojlantirish, institutning nufuzini yanada oshirish hamda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

Muhokama qilindi: Kengash a'zolari tomonidan Samarqand iqtisodiyot va servis institutini 2023–2028 yillarda rivojlantirish Dasturining mazmuni, tarkibiy tuzilishi, unda belgilangan strategik maqsadlar va rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlari muhokama qilindi. Muhokama jarayonida Dasturda institutning missiyasi, akademik, ilmiy-innovatsion va xalqaro faoliyatining joriy holati tahlil qilinganligi, shuningdek, 2023–2028 yillarga mo'ljallangan strategik maqsadlar, konseptual asoslar, istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari hamda maqsadli ko'rsatkichlar o'zaro uyg'un holda belgilab berilganligi qayd etildi.

Dasturda nazarda tutilgan strategik rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarni mas'ul tarkibiy bo'linmalar tomonidan o'z vaqtida, tizimli va sifatli amalga oshirish zarurligi ta'kidlandi. Shuningdek, Dasturda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish holatini muntazam monitoring qilib

borish, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligini tahlil qilish hamda zarur hollarda tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish muhimligi qayd etildi.

(Kengashda Samarqand iqtisodiyot va servis institutini 2023-2028 yillarda rivojlantirish Dasturini tasdiqlash bo'yicha ovoz berildi).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Kengash qaror qiladi:

1. O'quv ishlari bo'yicha prorektor T.S.Sharipovning kun tartibidagi masala yuzasidan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Samarqand iqtisodiyot va servis institutini 2023-2028 yillarda rivojlantirish Dasturi tasdiqlansin.

3. Institutni 2023-2028 yillarga mo'ljallangan strategik rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlari dasturida belgilangan chora-tadbirlarni mas'ul tarkibiy bo'linmalar mas'ullarga o'z vaqtida, sifatli va samarali amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

4. Dasturda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish holati mas'ul tarkibiy bo'linmalar tomonidan muntazam monitoring qilib borilsin, amalga oshirilgan ishlar natijalari tahlil qilinsin hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rilsin.

5. Mazkur qarorlar ijrosini nazorat qilish institutning o'quv ishlari bo'yicha prorektor T.S.Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi:

Kengash kotibi:




M.E. Po'latov

B.Sh. Musayev

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

**Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti Boshqaruv
kengashi**  **raisi M.E. Po‘latov**



“10” 01 2023 yil

**Samarqand iqtisodiyot va servis institutini
2023-2028 yillarda rivojlantirish
DASTURI**

SAMARQAND – 2023

MUNDARIJA

№	NOMLANISHI	BET
1.	SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI XAQIDA	3
2.	INSTITUT MISSIYASI	5
3.	SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTINING AKADEMIK, ILMIY-INNOVATSION VA XALQARO NUFUZINING JORIY HOLATINI SWOT TAHLILI	7
4.	SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTINI RIVOJLANTIRISHNING 2023-2028 YILLARGA MO'ljALLANGAN STRATEGIK MAQSADLARI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	11
5.	SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTINI 2023-2028 YILLARGA MO'ljALLANGAN STRATEGIK RIVOJLANISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI DASTURI	16
6.	SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTINI 2023-2028 YILLARDA RIVOJLANTIRISHNING MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	57

1. SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI INSTITUTI HAQIDA

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohalari uchun yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda ta'lim jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish maqsadida faoliyat yurituvchi davlat oliy ta'lim muassasalaridan biridir. Institutning tarixi 1931-yilda tashkil etilgan O'rta Osiyo rejalashtirish institutidan boshlanadi. Institut 1935-yilda Samarqand shahriga ko'chirilgan. Keyingi yillarda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar asosida institutning tashkiliy-huquqiy maqomi va nomi bir necha bor o'zgartirilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 26-martdagi 144-son qaroriga muvofiq institutga Samarqand iqtisodiyot va servis instituti nomi berilgan.

Institutning asosiy faoliyati iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va audit, moliya, bank ishi, menejment, marketing, raqamli iqtisodiyot, turizm, servis va xizmat ko'rsatish kabi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha zamonaviy bilim va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Shu bilan birga, institutda iqtisodiyotning real sektori, xizmat ko'rsatish sohasi, turizm va mehmondo'stlik, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq masalalarni ilmiy va amaliy jihatdan o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi.

Oliy ta'lim muassasasida ta'lim jarayoni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilib, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uzviy bog'lashga alohida e'tibor qaratiladi. Ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish, ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, talabalarining amaliy va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish institut faoliyatining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Institutda ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat ham faol olib borilib, professor-o'qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar tomonidan iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya hisobi, audit, bank ishi, xizmat ko'rsatish, turizm, raqamli iqtisodiyot va boshqa dolzarb yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar amalga oshiriladi. Ilmiy-tadqiqot natijalarini ta'lim jarayoniga va amaliyotga joriy etish, ilmiy salohiyatni oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishiga ilmiy-amaliy jihatdan ko'maklashishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, institut mahalliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, davlat va nodavlat tashkilotlar, banklar, korxonalar hamda xizmat ko'rsatish subyektlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirib kelmoqda. Mazkur hamkorlik doirasida professor-o'qituvchilar va talabalar uchun ilmiy-amaliy tadbirlar, malaka oshirish va stajirovkalar, ishlab chiqarish amaliyotlari, qo'shma ilmiy-tadqiqot loyihalari hamda ta'lim dasturlarini takomillashtirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohalari uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'lim sifatini xalqaro talablar asosida takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishga munosib hissa qo'shish borasida faoliyat olib bormoqda.

Institut o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, oliy ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda institut Ustaviga amal qiladi. Institut yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi, o'z nomi davlat tilida yozilgan muhr va blankalarga, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda bank hisobvaraqlariga hamda boshqa rekvizitlarga ega.

Institut bugungi kunda global va milliy miqyosda jadal rivojlanayotgan oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lib, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida o'zining boy tarixiy an'analari, ilmiy-pedagogik salohiyati, innovatsion yondashuvlari va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan faoliyati bilan alohida o'rin tutadi. Institut iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va audit, moliya, bank ishi, menejment, marketing, raqamli iqtisodiyot, turizm va servis sohalari uchun raqobatbardosh, zamonaviy bilim va kasbiy kompetensiyalarga ega yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishni o'zining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilagan. Samarqand iqtisodiyot va servis institutining joylashgan mazili: O'zbekiston Respublikasi, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy.

2. INSTITUT MISSIYASI

Institut missiyasi - Yangi O'zbekistonning taraqqiyot maqsadlariga mos ravishda, hududiy va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi, zamonaviy bilim, innovatsion tafakkur va amaliy ko'nikmalarga ega, raqobatbardosh, tashabbuskor, vatanparvar hamda global mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan yuqori malakali mutaxassislar, boshqaruv kadrlari va intellektual elitani tayyorlashdan iborat.

Institutning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- hududda iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika hamda texnologiyalarning rivojlanishi tendensiyalarini hisobga olgan holda Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning yetakchi universitetlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatib, Iqtisodiyot, Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti), Iqtisodiyot (oziq-ovqat va resurslar iqtisodiyoti), Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), Iqtisodiy xavfsizlik, Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar, Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar (mintaqalar va faoliyat turlari bo'yicha), Buxgalteriya hisobi, Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha), Soliqlar va soliqqa tortish, Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha), Statistika, Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), Biznes-tahlil, Moliya va moliyaviy texnologiyalar, Bank ishi, Bank ishi va auditori, Investitsion loyihalarga xizmat ko'rsatish va moliyalashtirish, Menejment, Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), Inson resurslarini boshqarish, Marketing, Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), Biznesni boshqarish, Biznesni boshqarish (qishloq xo'jaligida), Baholash ishi, Turizm va mehmondo'stlik, Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish, Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha), Aholi va turistlarning ovqatlanishini tashkil etish servisi, Logistika, Logistika (yo'nalishlar bo'yicha), Axborot tizimlari va texnologiyalari, Metrologiya va standartlashtirish, Oziq-ovqat texnologiyasi, shuningdek, viloyatda ehtiyoj yuqori bo'lgan boshqa mutaxassisliklar bo'yicha nazariy-amaliy ko'nikmalarni egallagan malakali iqtisodchi kadrlarni tayyorlash;
- Institutning mintaq va xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish maqsadida xorijiy fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish va ilg'or xalqaro tajribani tatbiq etish;
- o'quv va ilmiy loyihalarni amalga oshirish, ta'lim va ilmiy izlanishlar jarayoniga malakali mutaxassislarni keng jalb etish maqsadida ishlab chiqarish, qayta ishlash va xizmat ko'rsatish sohalaridagi respublika va xorijiy yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish;
- pedagog kadrlarning ilmiy salohiyati, kasbiy va malakaviy bilim darajasini uzluksiz rivojlantirib borish mexanizmlarini joriy etish, ularning pedagogik mahoratini rivojlantirishda xorijiy oliy ta'lim muassasalarining ilg'or tajribasidan keng foydalanish;
- xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash;

- institutda tarbiyaning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- shaxsning intellektual, madaniy va ma'naviy-ahloqiy kamol topishiga bo'lgan ehtiyojlarini oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ma'lumot olishi orqali erishishni qondirish;
- har tomonlama rivojlangan va sodiq shaxsni, mustaqil davlat fuqarosini, o'z Vatani fidoyisi, xalq, jamiyat va oila oldidagi o'z mas'uliyatini his qiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, halq an'analarini boyituvchi va mustahkamlovchi, Vatanimiz kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qiluvchi etib shakllantirish;
- chet tillarida dars beruvchi yosh pedagog xodimlar qatlamini kengaytirish, ularning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;
- respublika va xorijiy oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy markazlarda istiqbolli yosh bitiruvchilarni magistratura va doktoranturada o'qitish orqali Institutning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirib borish;
- masofaviy ta'lim elementlarini, shu jumladan, vebinar texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish.
- jamiyatning ahloqiy, madaniy va ilmiy qadriyatlarini saqlash va boyitish;
- aholi o'rtasida bilimlarni tarqatish, uning ma'naviy-ma'rifiy va madaniy darajasini ko'tarish.

3. SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTINING AKADEMIK, ILMIY-INNOVATSION VA XALQARO NUFUZINING JORIY HOLATINI SWOT TAHLILI.

Kuchli tomonlari (S)	1. Milliy universitetlar tipologiyasida alohida maqomga va zamonaviy boshqaruv tuzilmasiga ega universitet instituti. 2. Iqtisodchi kadrlar tayyorlarishda asosiy drayver OTMlardan biri. 3. Ilmiy salohiyat va imidj. 4. Shakllangan ilmiy reputatsiya. 5. Tizimli real integrasion aloqa. 6. Zamonaviy raqamli ta'lim infrastrukturasini. 7. Iqtidorli talabalar. 8. Keng spektrdagi xalqaro hamkorlik.
Zaif jihatlar (W)	1. Istemolchilar talablari asosidagi yo'nalish va mutaxassisliklar modernizatsiyasining pastligi. 2. Ta'lim-kadrlar tayyorlash missiyasining ilmiy-tadqiqot va inovatsiyalar transferi missiyalariga nisbatan yuqori ahamiyatga egaligi. 3. Talabalarning mustaqil kreativ fikrlash faoliyati uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli interaktiv ta'lim resurslari va didaktik materiallarga ehtiyoj. 4. Ilmiy tadqiqot faoliyatini global, milliy va hududiy muammolar yechimiga qaratishga oid maxsus taktik vazifalarni tizimlashtirilmaganligi (Ishlab chiqarishdagi real muammolar bankiga asoslangan). 5. Ilmiy ishlanmalar transferi va tijoratlashtirish bakalavr va magistratura talabalarini faolligining pastligi. 6. Institutning strategik rivojlanishi xalqaro reyting agentliklari maqsadli ko'rsatkichlari bilan uyg'unligining past darajasi.
Imkoniyatlar (O)	1. Ta'limning modul texnologiyasi birligiga va ESTC kredit tizimiga asoslangan kredit-modul tizimi joriy etildi. 2. Xalqaro tan olingan jurnallarda chop etiladigan ilmiy maqolalar va nashriyotchilik faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega "Ilmiy maktablar"ning mavjudligi. 3. Xalqaro reyting agentliklari internet platformasida universitetning profili yaratilgan va dastlabki natijalar mavjud. 4. Keng spektrdagi istiqbolli xalqaro hamkorliklikning tashkiliy-huquqiy asoslarining mavjudligi. 5. Professor-o'qituvchilar va talabalar xalqaro almashinuviga asoslangan xalqaro qo'shma dasturlarning dastlabki faoliyatlari.

Risklar (T)	1. Professor-o'qituvchilarning xalqaro jurnallar bazasi asosidagi h-indeksi past darajada, ilmiy salohiyat global raqobatbardoshlikni ta'minlash nuqtai nazardan yetarli darajada emas. 2. Xalqaro loyihalar, grantlar va stipendiyatlar tanlovlari, xalqaro PR loyihalarini yanada rivojlantirishga ehtiyoj mavjud.
-------------	---

3.1. Akademik, ilmiy-innovatsion va xalqaro nufuzini oshirishdagi nisbiy kuchli tomonlari

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'zining ko'p yillik tajribasi, shakllangan ilmiy-pedagogik salohiyati va moddiy-texnik bazasiga tayangan holda jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va innovatsion rivojlanishiga munosib hissa qo'shib kelayotgan oliy ta'lim muassasalaridan biridir. Institutda ta'lim, ilmiy-tadqiqot, innovatsion va xalqaro hamkorlik yo'nalishlarida faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi boshqaruv tizimi shakllangan. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari uchun yuqori malakali iqtisodiy kadrlar tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Institutda mehnat bozori va kadrlar buyurtmachilarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim jarayoni tashkil etilgan. Institut zamonaviy globallashuv sharoitida ilm-fan, innovatsiya va raqamli texnologiyalarning ilg'or yutuqlarini ta'lim jarayoniga hamda amaliyotga joriy etish imkoniyatiga ega. Institutda yuqori ilmiy salohiyatga ega professor-o'qituvchilar faoliyat olib borib, ularning ilmiy-tadqiqot ishlari iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, audit, moliya, bank, menejment, marketing, turizm, servis va boshqa ustuvor yo'nalishlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Institut iqtisodiyot va unga turdosh yo'nalishlarda shakllangan ilmiy maktab va ilmiy-pedagogik an'analarga ega. Ushbu ilmiy salohiyat mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, moliyaviy boshqaruv, buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

7

Institut respublikadagi vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar, yirik kompaniyalar, bank-moliya tashkilotlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, tadbirkorlik va ishlab chiqarish korxonalari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirib kelmoqda. Mazkur hamkorlik ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, talabalarni amaliyotga yo'naltirish hamda professor-o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotlarini real sektor muammolariga yo'naltirish imkonini bermoqda.

Innovatsion-korporativ hamkorlik doirasida korxona va tashkilotlarning dolzarb muammolarini aniqlash, ular bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, professor-o'qituvchilar va talabalarni ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlariga jalb qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Institutda ilmiy-tadqiqot faoliyatini ta'lim jarayoni bilan integratsiyalash, professor-o'qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Kafedralar qoshida tashkil etilgan ilmiy to'garaklar, ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar va tanlovlar talabalarning ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Institutning moddiy-texnik bazasi ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish imkonini beradi. Zamonaviy multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyalar, kompyuter xonalari, o'quv laboratoriyalari, kutubxona va elektron axborot resurslari, mustaqil ta'lim uchun zarur shart-sharoitlar hamda sport infratuzilmasi mavjud.

Institut talabalarining respublika va xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, tanlovlar va boshqa intellektual musobaqalarda ishtirok etishi ularning ilmiy salohiyati va ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish imkonini bermoqda. Iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish va professor-o'qituvchilarga biriktirish orqali ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Institut xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirib, professor-o'qituvchilar va talabalar akademik mobilligini ta'minlash, xorijiy professorlarni o'quv jarayoniga jalb qilish, qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil etish, ilmiy maqolalarni hamkorlikda tayyorlash va xalqaro loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Institutning xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan imzolagan memorandum va kelishuvlari xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borish, professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvini yo'lga qo'yish hamda xalqaro ta'lim dasturlarini rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratmoqda.

3.2. Akademik, ilmiy-innovatsion va xalqaro nufuzini oshirishdagi zaif jihatlari

Institutning akademik, ilmiy-innovatsion va xalqaro faoliyatini yanada rivojlantirish nuqtai nazaridan quyidagi zaif jihatlar mavjud:

- kadrlar buyurtmachilari va mehnat bozori talablaridan kelib chiqib, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari tarkibini yanada takomillashtirish zarur;

- o'quv rejalari va fan dasturlarini ish beruvchilar, professional tashkilotlar hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda muntazam yangilab borish zarur;

- o'quv jarayonida talabalarining mustaqil ta'lim olishiga ajratiladigan vaqt va imkoniyatlarni kengaytirish, mustaqil ta'limning zamonaviy shakllarini joriy etish talab etiladi;

8

- an'anaviy ta'lim modelidan talabaning mustaqil izlanishi, axborotni izlash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llashiga asoslangan ta'lim modeliga bosqichma-bosqich o'tishni kuchaytirish zarur;

- professor-o'qituvchilarning xorijiy oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirishi, stajirovka o'tashi va xalqaro ta'lim dasturlarida ishtirok etishi darajasini oshirish zarur;

- ta'lim jarayonida talabalarining tanqidiy va kreativ fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish hamda amaliy muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish zarur;

- talabalar bilimini baholash tizimini zamonaviy xalqaro yondashuvlar asosida yanada takomillashtirish zarur;

- talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish shakllari va metodlarini takomillashtirish hamda ularning ulushini oshirish zarur;

- kafedralar faoliyatini baholashning aniq va natijador KPI tizimini takomillashtirish zarur;

- institut ilmiy faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini Samarqand viloyati va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolariga yanada ko‘proq yo‘naltirish zarur;
- ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada mustahkamlash, ilmiy tadqiqotlarni real sektor ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish zarur;
- iqtidorli talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish samaradorligini oshirish zarur;
- institutning ilmiy salohiyatini xalqaro mezonlar asosida oshirish, Scopus va Web of Science bazalaridagi nufuzli ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish hamda iqtiboslar sonini ko‘paytirish zarur;
- institutning rasmiy veb-saytini xalqaro reytinglar talablariga mos ravishda modernizatsiya qilish, uning o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi kontentini muntazam yangilab borish zarur;
- xalqaro grantlar, loyihalar, akademik almashinuv dasturlari va xalqaro stipendiyalarda professor-o‘qituvchilar hamda talabalar ishtirokini kengaytirish zarur.

3.3. Akademik, ilmiy-innovatsion va xalqaro nufuzini oshirishdagi imkoniyatlar

Institutning akademik, ilmiy-innovatsion va xalqaro nufuzini oshirish uchun quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- kredit-modul tizimi asosida ta’lim jarayonini xalqaro ta’lim standartlariga yanada uyg‘unlashtirish;
- institutda faoliyat olib borayotgan yuqori ilmiy salohiyatga ega professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish;
- Scopus va Web of Science xalqaro ma’lumotlar bazalarida indekslanuvchi nufuzli jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish ko‘lamini kengaytirish;
- xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan mavjud hamkorlik memorandumlaridan samarali foydalanish orqali professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvini kengaytirish;
- xorijiy professor-o‘qituvchilarni institutning o‘quv jarayoni va ilmiy tadqiqotlariga keng jalb qilish;
- qo‘shma ta’lim dasturlari soni va geografiyasini kengaytirish;
- hamkor xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma ilmiy tadqiqotlar, xalqaro konferensiyalar, seminarlar va ilmiy loyihalarni amalga oshirish;
- xalqaro grant va loyihalarda institut professor-o‘qituvchilari hamda talabalarining ishtirokini kengaytirish;
- ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida korxona va tashkilotlarning amaliy muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish;
- hududning iqtisodiy, ijtimoiy, turizm va servis salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy loyihalarni ko‘paytirish;
- professor-o‘qituvchilar va talabalar akademik mobilligini oshirish;
- xalqaro yozgi maktablar, seminarlar, master-klasslar va ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish orqali institutning xalqaro nufuzini oshirish;
- institutning ta’lim va ilmiy salohiyatini xalqaro axborot makonida keng targ‘ib qilish imkoniyatlaridan foydalanish.

3.4. Akademik, ilmiy-innovatsion va xalqaro nufuzini oshirishga ta’sir etuvchi risklar

Institutning strategik rivojlanishiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan asosiy risklar quyidagilardan iborat:

- institut umumiy daromadlari tarkibida ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashirish, konsalting va boshqa xizmatlardan olinadigan daromadlar ulushining yetarli darajada shakllanmaganligi;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish va tijoratlashirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- professor-o‘qituvchilarning Scopus va Web of Science bazalarida indekslanuvchi nufuzli jurnallarda maqolalar chop etishi va ilmiy ishlariga iqtiboslar sonining yetarli darajada yuqori emasligi;
- institutning akademik va ilmiy reputatsiyasining xalqaro miqyosda yetarli darajada shakllanmaganligi;
- xalqaro grantlar, loyihalar, stipendiyalar va akademik almashinuv dasturlarida professor-o‘qituvchilar hamda talabalar ishtirokining pastligi;
- xorijiy talabalarni jalb qilish bo‘yicha xalqaro ta’lim xizmatlari va PR-loyihalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- xalqaro hamkorlik geografiyasining cheklanganligi;
- xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini yuqori darajada biladigan professor-o‘qituvchilar ulushini yanada oshirish zarurati;
- xalqaro reytinglarda institutning akademik, ilmiy va raqamli ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha tizimli ishlarni kuchaytirish zarurati.

4. SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTINING 2023–2028 YILLARGA MO‘LJALLANGAN STRATEGIK MAQSADLARI VA KONSEPTUAL ASOSLARI

4.1. Institutning 2023–2028 yillarga mo‘ljallangan faoliyat bosh strategiyasi

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 2023–2028 yillarga mo‘ljallangan bosh strategiyasi — mamlakat milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta’minlashga munosib hissa qo‘shuvchi, yuqori malakali va zamonaviy bilimlarga ega mutaxassislar tayyorlaydigan, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantiradigan, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlaydigan, xalqaro hamkorlikni kengaytiruvchi zamonaviy oliy ta’lim muassasasiga aylanishdan iborat. Institutning istiqboldagi strategik rivojlanishi zamonaviy oliy ta’lim muassasalari tajribasi asosida **“6I modeli”** tamoyillariga, ya’ni baynalminallashuv, fanlararo integratsiya, sektorlararo integratsiya, innovatsiya, o‘zaro ta’sirchanlik va inklyuzivlik kabi ustuvor yo‘nalishlarga asoslanadi. Mazkur yondashuv institutning nafaqat ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatini, balki innovatsiyalarni yaratish va amaliyotga transfer qilish, biznes va ishlab chiqarish bilan hamkorlikni kuchaytirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yaxlit ta’lim-ilm-fan-innovatsiya ekotizimini shakllantirishga yo‘naltiriladi.

4.2. Strategik rivojlanishning istiqbolli yo‘nalishlari

4.2.1. Ta’lim tizimini modernizatsiyalash sohasida

- ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik, raqamli va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish;

- ta’lim dasturlarini mamlakatni modernizatsiya qilish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlashga yo’naltirish;
- bakalavriat ta’lim yo’nalishlari va magistratura mutaxassisliklari tarkibini mehnat bozori hamda ish beruvchilar ehtiyojlaridan kelib chiqib takomillashtirish;
- o’quv rejalari va fan dasturlarini xalqaro ta’lim standartlari, zamonaviy ilmiy yutuqlar va ish beruvchilar talablari asosida muntazam yangilab borish;
- kredit-modul tizimini takomillashtirish va talabalarning akademik mobilligini kengaytirish;
- dual ta’lim tizimini ta’lim yo’nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib keng joriy etish;
- xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan qo’shma ta’lim dasturlarini rivojlantirish;
- xalqaro akkreditatsiya talablarini bosqichma-bosqich joriy etish;
- zamonaviy ta’limda fanlararo bilimlarga asoslangan raqamli va innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish;
- talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish, muammolarni mustaqil hal etish ko’nikmalarini rivojlantirish;
- talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishini oshirish va iqtidorli talabalarni ilmiy loyihalarga keng jalb qilish;
- yangi avlod lider kadrlarini tayyorlash maqsadida davlat tashkilotlari, biznes tuzilmalari va ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- jamiyatning ilmiy, madaniy va ma’naviy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish;
- aholining bilim va malakasini oshirishga qaratilgan qo’shimcha ta’lim xizmatlarini rivojlantirish.

4.2.2. Ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsiyalar transferi sohasida

- Samarqand viloyati va mamlakat iqtisodiyotining dolzarb muammolariga ilmiy-amaliy yechimlar ishlab chiqadigan ilmiy markaz sifatida institutning mavqeini mustahkamlash;
- «Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko’rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari» institutning yagona mavzusida ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Barcha kafedralarning professor-o’qituvchilari, tayanch doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari hamda iqtidorli talabalar ushbu mavzudagi ilmiy tadqiqotlarga jalb etiladi;
- hududiy va milliy miqyosdagi barqaror iqtisodiy rivojlanish muammolariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish;
- ilmiy tadqiqotlarni bilimlar va innovatsiyalar transferi asosida rivojlantirish;
- ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va konsalting xizmatlarini rivojlantirish orqali institutning ilmiy-innovatsion daromadlarini oshirish;
- korxonalar, tashkilotlar, banklar, moliya institutlari va boshqa xo’jalik subyektlari bilan innovatsion-korporativ hamkorlikni kengaytirish;
- real sektor korxonalarining muammolari asosida ilmiy tadqiqot mavzulari bankini shakllantirish;
- professor-o’qituvchilar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish;
- xalqaro ilmiy loyihalar, grantlar va dasturlarda institut ishtirokini kengaytirish;

- xorijiy fuqarolarni belgilangan tartibda to‘lov-kontrakt asosida institut doktoranturasiga jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish;
- magistratura bitiruvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirilishini kuchaytirish;
- institutning ilmiy salohiyatini bosqichma-bosqich oshirish;
- Scopus va Web of Science xalqaro ma‘lumotlar bazalarida indekslanuvchi nufuzli jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish sonini ko‘paytirish;
- professor-o‘qituvchilarning h-indeksini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish;
- tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya ishlarini himoya qilish samaradorligini oshirish;
- ilmiy monografiyalar, o‘quv adabiyotlari, ilmiy maqolalar va amaliy tavsiyalar tayyorlashni kengaytirish;
- xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar, monografiyalar va ilmiy loyihalarni amalga oshirish;
- kafedralar professor-o‘qituvchilarining ilmiy-amaliy stajirovkalarini korxona va tashkilotlarda tashkil etish;
- talabalarni real va moliyaviy sektor korxonalarida amaliyot o‘tashiga keng imkoniyat yaratish;
- magistrlik dissertatsiyalari va talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarini korxona va tashkilotlarning real muammolari bilan bog‘lash;
- xo‘jalik shartnomalari va amaliy ilmiy tadqiqotlar sonini ko‘paytirish.

4.2.3. Institutning ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish va inson kapitaliga investitsiyalar orqali kadrlar zaxirasini tayyorlash sohasida

- institut professor-o‘qituvchilarining ilmiy va pedagogik salohiyatini muntazam oshirib borish;
- yosh professor-o‘qituvchilarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish;
- yosh o‘qituvchilarni xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida magistratura, doktorantura, malaka oshirish va stajirovkalarga yuborish;
- xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini yuqori darajada biladigan professor-o‘qituvchilar ulushini oshirish;
- professor-o‘qituvchilarning xalqaro professional tashkilotlar va ilmiy hamjamiyatlarga a‘zolicini kengaytirish;
- professor-o‘qituvchilarning talabalar soniga nisbatini ta‘lim sifati va xalqaro mezonlarga mos ravishda optimallashtirish;
- ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar ulushini bosqichma-bosqich oshirish;
- professor-o‘qituvchilarning xalqaro sertifikatlar va professional malaka dasturlarida ishtirokini kengaytirish;
- iqtidorli yosh mutaxassislarni institutda ishga jalb qilish va ular uchun kasbiy rivojlanish mexanizmlarini yaratish;
- professor-o‘qituvchilarning ilmiy, pedagogik va innovatsion faoliyatini rag‘batlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.

4.2.4. Istiqboldagi oliy ta‘lim xizmatlari makonida Samarqand iqtisodiyot va servis instituti brendini shakllantirish va mustahkamlash strategiyasi

- muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali Samarqand iqtisodiyot va servis instituti brendini respublika va xalqaro darajada rivojlantirish;
- institutning akademik, ilmiy va ish beruvchilar orasidagi reputatsiyasini oshirish;
- institutning rasmiy veb-saytini o‘zbek, rus va ingliz tillarida muntazam yangilab borish;
- institutning ta’lim, ilmiy va xalqaro salohiyatini namoyon etuvchi zamonaviy videoroliklar, elektron kataloglar, prospektlar va taqdimot materiallarini yaratish;
- institutning xalqaro ijtimoiy tarmoqlardagi, jumladan LinkedIn va boshqa professional platformalardagi faolligini oshirish;
- xorijiy talabalarni jalb qilishga qaratilgan xalqaro PR-loyihalarni rivojlantirish;
- institutda xorijiy va mahalliy talabalar uchun iqtisodiyot, biznes, turizm va servis yo‘nalishlarida xalqaro yozgi maktablar tashkil etish;
- xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda xalqaro seminarlar, konferensiyalar, master-klasslar va akademik tadbirlarni tashkil etish;
- institutning ijtimoiy missiyasini talabalarning intellektual, ma’naviy, axloqiy va jismoniy rivojlanishini ta’minlash orqali amalga oshirish;
- xorijiy talabalarni institutga jalb qilish bo‘yicha targ‘ibot va axborot kampaniyalarini kengaytirish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni qo‘llab-quvvatlashning tizimli mexanizmlarini takomillashtirish.

4.2.5. Ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish sohasida.

- talabalarning intellektual, ma’naviy, axloqiy va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- talabalar o‘rtasida institutdagi ta’lim jarayoni, shart-sharoitlar, muammolar va takliflarni o‘rganish maqsadida muntazam ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish;
- talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy, madaniy va sport tadbirlarini kengaytirish;
- talabalarni madaniyat va san’at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish;
- talabalarning raqamli va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini oshirish;
- kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va targ‘ib qilish;
- talaba-qizlarning kasbiy va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- talabalarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish;
- yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish;
- vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, insoniylik va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini rivojlantirish;
- inklyuziv ta’lim tamoyillarini rivojlantirish va imkoniyati cheklangan talabalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- yoshlar tarbiyasida ota-onalar, mahalla va institut hamkorligini tizimli yo‘lga qo‘yish;
- institutda psixologik va ijtimoiy xizmatlar faoliyatini takomillashtirish;
- talabalarni zamonaviy kasblar, hunar va tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirish;
- talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari va salbiy ta’sirlardan himoya qilishga qaratilgan profilaktik va ma’rifiy ishlarni kuchaytirish.

4.2.6. Moddiy-texnik bazani mustahkamlash, zamonaviy jihozlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash sohasida.

- institutning moddiy-texnik bazasini zamonaviy talablar asosida muntazam ravishda yangilash va mustahkamlash;
- o'quv auditoriyalarini zamonaviy multimedia, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash;
- zamonaviy o'quv laboratoriyalari va amaliy mashg'ulot xonalarini tashkil etish;
- elektron kutubxona va raqamli ta'lim resurslari bazasini kengaytirish;
- institut binolarida kapital va joriy ta'mirlash ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- institut hududini obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish;
- institut infratuzilmasini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish;
- ta'lim va boshqaruv jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish;
- institutning rasmiy veb-saytini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish;
- institutning ochiq ma'lumotlar, elektron xizmatlar va raqamli axborot resurslarini rivojlantirish;
- institutning axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish va raqamli xavfsizlikni ta'minlash.

**4. SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTINI 2023-2028 YILLARGA MO'ljALLANGAN
STRATEGIK RIVOJLANISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI
DASTURI**

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag' (mln. so'm)	Muddati	Mas'ullar	Kutilayotgan natija
5.1. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ilg'or xorijiy tajriba asosida ta'lim sifatini oshirish						
1.	Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasidagi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalari asosida iqtisodchi kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirishga qaratish, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim sifatini modernizatsiyalash.	Zamonaviy talablar asosida o'quv rejalari, o'quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta'lim tilini hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim olish shaklini belgilash; Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o'qish davomiyligi muddatlarini qayta ko'rib chiqish; magistratura bosqichida mehnat bozori talablaridan kelib talab yuqori mutaxassisliklarni joriy etish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha qo'sh malakalar, shu jumladan amaliy malakalar berish tizimini joriy qilish; o'zaro kelishuvlar asosida oliy ta'lim muassasalari bilan akademik mobillikni amalga oshirish; darsliklar hamda boshqa o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish; ta'lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish;	-	2023-2028 yy.	Rektor, prorektorlar, fakultet dekanlari, xodimlar bo'limi.	Zamon talabiga mos ravishda Institut tarkibiy tuzilmasi takomillashtiriladi, yangi bo'lim va markazlar ochiladi, Institut faoliyatini takomillashtirishga imkon beruvchi me'yorlar ishlab chiqiladi.

2.	Institutning tuzilmasi, boshqaruv kadrlari, professor-o'qituvchilar tarkibi va talabalar to'g'risidagi ma'lumotlarni yuritish hamda	Boshqaruv tuzilmasi, professor-o'qituvchilari va talabalar to'g'risida yagona ma'lumotlar bankini o'zida mujassamlashtiruvchi dastur ishlab chiqiladi.	-	2023 yil	Rektor, prorektorlar, fakultet dekanlari, xodimlar bo'limi.	Institut akademik faoliyati to'g'risida mukammal axborotlar bazasi shakllatirladi.
----	---	--	---	----------	---	--

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag' (mln. so'm)	Muddati	Mas'ullar	Kutilayotgan natija
